

XALQARO TURIZM BOZORINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Baltasheva Zuhra Adenbaevna

i.f.n., dotsent, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi Nukus sh.
Ózbekiston Respublikasi

Adilchaev Rustem Tursinbaevich

i.f.n., professor v.b, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi Nukus sh.
Ózbekiston Respublikasi

A R T I C L E I N F O .

Kalit so‘zlar: xalqaro turizm bozori, dunyo mamlakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, milliy iqtisodiyot, dunyo mintaqalari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaliv iqtisodiy sharoitda xalqaro turizm bozorining shakllanishi va rivojlanishining umumiyl shartlari ko‘rilgan. Maqolada shuningdek evolyusion rivojlanish omillari, jahon iqtisodiyoti va unda xalqaro turizm bozorining roli ko‘rsatib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

KIRISH

Ma`lumki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini asr boshlaridagi holati, dunyo mamlakatlari va jahon hududlarining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi kuchaygan, fan-texnika rivoji ta’sirida umumoplaneta miqyosidagi yangi muammolarni yuzaga kelishi va keskinlashuvni ortgan sharoitda, globallashuv jarayonlarini yanada shiddatli ravishdagi tezlashishi bilan tavsiflanadi. Intensivlashtirish jarayonlari rivojlanishining bu bosqichdagi eng ahamiyatli xususiyatlaridan biri, ishlab chiqarishning turli omillarini davlatlararo aralashib ketishi va moliyaviy kapitallarni chegara bilmas darajadagi harakatidan iboratdir. Buning natijasida globalizatsiya barcha iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayon sifatida namoyon bo‘lib, uning barcha elementlari bir-biri bilan yanada moslashgan holda rivojlanishga sababchi bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Globalashuv sharoitida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari hukumat tomonidan belgilangan va juda ko‘p davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar, turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Shu bilan bir vaqtida xalqaro turizmda amalga oshirilishi muhim bo‘lgan ishlarni quyidagilardan iborat deb bilamiz.

1. Xalqaro turizmda marketing foliyatidan keng foydalanish va xalqaro bozorlarni egallash uchun intilish;
2. O‘zbekistonning turizm imkoniyatini bevosita chet ellarning o‘zida axborot agentliklari orqali tarqatish va ommalashtirish uchun harakat qilish;
3. Turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash, o‘qitish, ular uchun barcha imkoniyatlarni

yaratib turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

4. Xalqaro turizm yarmarkalarida surunkali tarzda ishtirok etish;
5. O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan faoliyat turlari va sifati bo‘yicha bukletlar, prospektlar va hokozalarni tarqatish;
6. Xalqaro turizmda birgalikda faoliyat yurita oladigan qo‘shma korxonalar, kompaniyalar va hokozalarni tuzish va ularni faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish.

Turli kichik shaklga ega bo‘lgan turistik komplekslarda raqobat munosabatlarini yanada kuchaytirish va boshqa tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1-jadvaldan ko‘rnib turganidek, dunyo mintaqalari bo‘yicha xalqaro turistlarning kelishi 1990 yildagi 435 mln. kishidan 2023 yilga kelib, 1mlrd 400 mln kishiga yetgan.

1-jadval 1990-2023 yillarda dunyo mintaqalari bo‘yicha xalqaro turistlarning kelishi (mln.kishi)

Ko‘rsatkichlar	1990	1995	2000	2005	2010	2020	2021	2022	2023
Dunyo	435	527	674	809	951	1,189	1,235	1,323	1,400
Yevropa	261,5	304,5	386,6	453,2	489,4	607,7	619,7	671	713
Osiyo	55,9	82,1	110,4	154	205,5	279,2	302,9	324	343
Amerika	92,8	108,9	128,2	133,3	150,2	192,6	200,9	208,7	217
Afrika	14,8	18,7	26,2	34,8	50,4	53,5	58,2	62	67
Yaqin Sharq	9,6	12,7	22,4	33,7	54,7	53,3	53,6	58,1	64

Bu yerda yetakchilik Yevropa mintaqasiga tegishli bo‘lib, turistlarning kelishdagi o‘sish sur’ati yuqori darajani tashkil etar ekan. Xalqaro turizmni rivojlanishda o‘ziga jalb qiluvchi, dam olish, zavqlanish uchun xizmat qiladigan turistik ob’ktlarning ham mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Masalan Yevropada mavzuli parklar mavjud bo‘lib, ko‘plab turistlarni tashrif buyurishiga sababchi bo‘lmoqda. Mana shunday maskanlardan biri O‘zbekiston poytaxti Toshkentda hambo‘lib, Disneylend va Akvapark faoliyati bilan bog‘liqidir. Ular 1997 yildan boshlab faoliyat ko‘rsata boshladi va nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda eng ko‘zga ko‘ringan park hisoblanadi.

NATIJALAR

Butun jahon turistik tashkilotining bashoratiga ko‘ra 2025 yilgacha turizmnинг о‘rtacha yillik o‘sish sur’ati Yevropada - 4,1%, Yaqin Sharqda 7,8%, Janubiy Osiyoda 7,5%, Sharqiy Osiyoda - Tinch Okeani hududlarida -8,2% bo‘lishi kerak. Bu raqam O‘zbekiston uchun 15% qilib aniqlangan va Osiyo qit’asiga qaraganda 2 barobar yuqori qilib belgilangan. Buning asosiy sabablaridan biri O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida hududiy joylashishi, transport qatnovini juda ko‘plab davlatlar uchun mavjudligi va nihoyat O‘zbekistonga aynan faqat turizm maqsadida keluvchilar sonining ortib borishini nazarda tutgan holda amalga oshirilishidan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, turizm xizmatlar bozorida turmahsulotlarni samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning imidji katta ahamiyatga ega. Turmahsulot imidjiga ta’sir kiluvchi omillar esa quyidagilar bo‘lishi mumkin: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o‘rtasidagi tili, dini, millati bo‘yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo‘limgan me’moriy qurilishlar va boshqalar. Yuqorida fikrlarni umumiylashtirib biz bu omillarni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, maishiy va infratuzilmaviy omillar darajasida ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

1-jadval Turmahsulot imidjiga ta'sir etuvchi omillar [5]

Siyosiy	Mamlakatdagi siyosiy vaziyat. Kriminal hodisalar. Davlat organlari tomonidan o'rnatalgan nazorat.
Maishiy	Turbazalar va shu kabi joylarda tozalik va sanitariya-gigienani yuqoriligi. Turmarkazlardagi turistlar soni. Tabiat, atrof-muxit va shahar landshaftining o'ziga jalb qilishxususiyati.
Iqtisodiy	Ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va narxlarning o'zaro mosligi.
Ijtimoiy-madaniy	Mahalliy jamiyatning o'ziga xos xususiyati va madaniyati. Milliy san'at, hunarmandchilik va urf-odatlarning o'zigaxosligi. Mahalliy aholining ahilli.
Infratuzilmaviy	Kommunal xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi. Transport xizmatlarini standartlarga muvofiqligi. Boshqa turdag'i ob'ektlar va xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi.

XULOSA VA MUNOZARA

Turizm tashqi bozor kon'yukturasining asosiy xususiyatlarini hamda uning mazkur sohaning ustuvor yo'naliishlarini aniqlashga bo'lgan ta'sirni Uzbekistonga kelayotgan fuqarolar oqimining tarkibiy tuzilishi orqali aniqlash mumkin. Buni aniqlashtirish uchun qo'shimcha ravishda chegaralarni kesib o'tish haqidagi hamda sayoxat maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 2020 yil, 30dekabr.
2. Djandjugazova E.A. Turistik hududlar marketingi: darslik. ta'llim sohasida tahsil olayotgan universitet talabalari uchun qo'llanma - Turizm / E.A. Jandjugazova. - M.: Akademiya, 2008 yil.
3. Kleyman, A.A. Iqtisodiy notinchlik sharoitida turizm biznesini rivojlantirishning yangi yo'naliishi va strategiyasi to'g'risida / A.A. Kleiman, O.A. Babanchikova // Milliy turizm akademiyasining axborotnomasi. - 2015. - No 1 - B. 22-29.
4. Minaev, V.A. Mintaqaviy turizm: zamonaviy makroiqtisodiy sharoitlarda prognozlash va rivojlanishni rejalashtirish / V.A. Minaev, N.A. Platonova, E.A. Tsyshchuk // Mintaqaviy iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. - 2015. -23-son - B. 2-12.
5. Sevryukov, I.Yu. Turistik xizmatlar bozori: hozirgi holat va rivojlanish tendentsiyalari // Iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. - 2016. - No 4 - B. 43 - 48.
6. Morozov, M.A. Turizmda tadbirkorlik va raqobat: monografiya / N.S. Morozova, M.A. Morozov. - M.: Rossiya yangi universiteti, 2010.
7. www.ziyonet.uz
8. www.stat.uz